

## JADID ADABIYOTIDA TURKCHILIK G'OYALARI

Sharifov Azizbek Dilshodovich

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21285766>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turkchilik harakati, jadidchilik harakati, jadidlarning turkchilik haqidagi qarashlari va ularni o'z asarlari va maqolalarida aks ettirishi haqida fikrlar bayon qilinadi. Jadidlarning turkiy millatlar, tillar va urf-odatlariga qanday e'tibor berganliklari tahlil qilinadi. XX asr turkiy birlik g'oyalari va bugungi kundagi g'oyalar solishtiriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adabiyoti, jadid adabiyoti, turkchilik, adabiyot, maqola, jadidchilik, mafkura, panturkizm.

**Аннотация.** В данной статье представлены взгляды на тюркское движение, движение джадидов, взгляды джадидов на тюркизм, а также их размышления в трудах и статьях. Анализируется, как джадиды уделяли внимание тюркским народам, языкам и традициям. Проводится сравнение идей тюркского единства XX века и современных представлений.

**Ключевые слова:** Узбекская литература, джадидская литература, тюркизм, литература, статья, джадидизм, идеология, пантюркизм.

**Abstract.** This article presents the views on the Turkic movement, the Jadid movement, the Jadids' views on Turkicisms, and their reflections in their works and articles. It analyzes how the Jadids paid attention to Turkic nations, languages, and traditions. The ideas of Turkic unity of the 20th century and today's ideas are compared.

**Keywords:** Uzbek literature, Jadid literature, Turkism, literature, article, Jadidism, ideology, pan-turkism.

**Kirish.** Turkchilik – turkiy xalqlarning madaniy, tarixiy va etnik jihatdan birlashuvini targ'ib qiluvchi mafkura va ijtimoiy-siyosiy harakatdir. Bu harakat XIX-XX asrlarga kelib dastlab Usmonli xalifaligida, keyinchalik esa o'lkamiz Turkistonda ham juda keng tarqaldi. Yosh turklarning "Ittihad va taraqqiy" partiyasi aynan shu mafkuraga asoslangan edi. Keyinchalik jadidchilik asoschisi Ismoil G'aspirali o'zining "Tarjumon" gazetasida xuddi shunday qarashlarni targ'ib etgach, bu gazetani mutolaa qilgan "Yosh buxoroliklar" va "Yosh xivaliklar" orasida ham turkchilik g'oyalari paydo bo'ldi. Rus va G'arb manbalari bu harakatni "panturkizm" deb atadi.

Shu tariqa Turkiston jadid adabiyotining rivojlanishi hamda turkchilik g'oyasining Turkistonda ommalashuvi aynan bir vaqtda sodir bo'ldi. Shu sababli ham Fitrat, Cho'lpon va boshqa jadidlar maqolalari va ijodida ayrim turkchilik g'oyalarini uchratish mumkin. Turkchilik nafaqat turkiy xalqlarning birlashuvini, balki turklarning dunyo tarixida qanday o'rin tutgani turklarning naqadar buyuk xalq ekanini ifodalaydi.

**Asosiy qism.** Buxorolik jadid, ilk o'zbek professori o'zining 1919-yilgi "Tilimiz" maqolasida quyidagilarni yozadi: "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. .... Dunyoning eng boy tili bo'lg'on turkchamiz yolg'uz arabcha qimruqlar bilan emas, forsicha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. .... Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir.

Lekin, bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. .... Turk ulusini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarixi qorong'udir deganlarning ham bir-ikki tayoq yeb, quvilmoqlari kerakdir". Yuqoridagi maqola parchalaridan bilish mumkinki, Fitrat turk tilining arab va fors so'zlar ta'sirida o'z jozibasini yo'qotganini, o'sha davr insonlari o'z tilidan arab va fors tillarini ustun qo'yishini, vaholanki turk tili ulardan ancha boy va jozibali ekanligini ta'kidlagan. Fitrat nafaqat adib, balki yetuk filolog edi. O'z tilini sevardi, shu sababli turk tilini boshqa tillardan ustun qo'ydi va o'z maqola darsliklarida insonlarini turk tilida muloqot qilishga chaqirdi.

Fitratga ixlosmand bo'lgan Cho'lponning ijodida ham turk millatini ulug'lovchi satrlarni ko'rish mumkin. Masalan, 1917-yil 28-noyabrda tuzilgan Turkiston muxtoriyatiga bag'ishlab yozilgan, keyinchalik shu muxtor davlatning madhiyasiga aylangan she'rida quyidagi satrlar mavjud:

“Turkistonli — shonimiz, turonli — unvonimiz,  
Vatan — bizni jonimiz, fido o'lsun qonimiz!”

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, Cho'lpon turk bo'lish, Turkiston farzandi bo'lishni sharaf deb bilgan. Bundan tashqari, 1920-yilda qo'rboshilarga Anvar poshoning kelib qo'shilishidan shoir behad quvonadi. 1922-yilda Anvar posho Baljuvonda shahid bo'lganini eshitgach, chuqur qayg'uga botib, unga atab marsiya yozadi.

Mashhur jadid namoyandasi Ashurali Zohiriy ham o'z publitsistikasida insonlar o'z tiliga past nazar bilan qarashini qoralaydi: “Nechukki, olimlarimizdan biri biror yerg'a xat yozsa yoki birov g'a bergan narsasini xotira daftariga yozsa o'z ona tilini qo'yib fors tilida yozadurlar.

Yoshlarimiz bo'lsalar o'z yerliklaridan birini ziyofatig'a chaqurib xat yozsalar usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar. Bularning sababi ham ravshandurki, birinchilari: o'zlarining Eron adabiyoti ta'siri bilan nurlagan bo'lsalar, ikkinchilari: tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochgandurlar. Shuning uchun ham har ikki guruh ham o'zlarining “tur” olg'on taraflarig'a qarab tortadurlarda o'z ona tillarig'a haqorat nazari bilan boqub kundan kun esdan chiqarmoqg'a boshlaydurlar”. Abdurauf Muzaffarzoda esa maktab va madrasalarda o'qitish tili o'zbek tili asosiga qurilmagani, o'quvchilarga fanlar arab, fors tillaridagi darsliklar, o'quv qo'llanmalardan o'qitilishi, bu holatning hamon davom etayotgani, so'zlashuvda, yozuvda arab hamda fors tilidagi so'zlardan foydalanish o'zbek tili nufuzining pasayishiga xizmat qildi, deb hisoblaydi.

**Xulosa.** Jadidlar yashagan davr Turkistonning eng qora kunlari edi. Bir tomondan rus bosqini, ikkinchi tomondan mahalliy aholi va hukumatning johilligi yurtni xarob qilayotgan edi.

Mana shunday vaziyatda jadidlar insonlarni jaholatdan chiqishga, o'z millatini, yurtini, tilini sevishga chaqirdilar. Ular o'zining dastlabki faoliyatida faqat til va adabiyot bilan shug'ullangan, turk tilidan ko'proq foydalanishni targ'ib qilgan bo'lsa, XX asr 20-yillaridan siyosiy faoliyatlarini boshlashdi va butun millatni birlashishga, Turkiston istiqlolini tiklab, turk millatining avvalgi shon-shuhratini qaytarishga harakat qildilar.

#### **Foydalanilgan manbalar**

1. Boltaboyev H. Jadidlar: Abdurauf Fitrat – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 – 144 b.

2. Quronov D. Jadidlar: Abdulhamid Cho'lpon – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022 – 162 b.
3. Oyina.uz rasmiy veb-sayti. – URL:  
<https://oyina.uz/uz/article/2140?ysclid=mqzqajtnxq359480031>
4. Ziyouz.uz rasmiy veb-sayti. – URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-abdulhamid-chulpon-1897-1938/?lng=lat&ysclid=mqzh5jwa5u626663652>